

## Buxoro viloyatida 2019 yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Raqamlar:



**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9867,0 mlrd. so'm**


**O'sish sur'ati 91,3%**

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 9867,0 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,3 % tashkil etdi.

Moliyalashtirishning manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi chet el investiyalari va kreditlari – 5226,1 mlrd. so'm yoki 52,9 %, korxonalarining va aholining o'z hisobidan esa 2501,8 mlrd. so'm, yoki 25,4% jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hisobiga to'g'ri keladi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2019 yil yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1728,7 mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi 17,5 foiz, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa 8138,3 mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi 82,5 foizni tashkil qildi.




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, foizda)						
		Respublika byudjeti	Suv taminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgarmasi	Korxonalar va tashkilot mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Aholi mablaglari	Tiklanish va taraqqiyot jamgarmasi
<b>Jami viloyat</b>	<b>9867,0</b>	<b>7,6</b>	<b>1,0</b>	<b>12,5</b>	<b>12,7</b>	<b>52,9</b>	<b>12,9</b>	<b>0,4</b>
Buxoro sh	2549,6	11,8	0,0	20,1	10,9	46,7	9,1	1,4
Kogon sh	260,3	5,0	0,0	38,1	5,0	48,4	3,5	0,0
Olot	1304,0	5,2	7,5	1,9	8,6	68,2	8,6	0,0
Buxoro	543,0	9,3	0,1	9,8	12,9	48,6	19,3	0,0
Vobkent	311,7	5,9	0,3	8,4	12,4	49,4	23,6	0,0
G'ijduvon	670,4	6,0	0,0	8,0	43,3	16,7	26,0	0,0
Kogon	591,7	4,1	0,1	18,5	7,9	53,0	16,4	0,0
Qorako'l	433,5	19,8	0,0	11,5	17,5	27,8	23,1	0,3
Qorovulbozor	272,7	6,4	0,0	17,7	14,5	57,7	3,6	0,0
Peshku	492,3	5,6	0,0	3,2	12,9	60,8	17,5	0,0
Romitan	1554,3	2,5	0,0	6,0	3,8	80,2	7,5	0,0
Jondor	567,1	4,5	0,0	23,6	24,0	33,5	14,4	0,0
Shofirkon	316,4	12,6	0,0	4,1	9,7	51,7	21,9	0,0

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari  
bo`yicha tarkibi**


	mlrd. so`m	O`sinh sur`ati, foizda	Jamiga nisbatan, foizda
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>9867,0</b>	<b>91,3</b>	<b>100,0</b>
<b><i>Markazlashgan investitsiyalar:</i></b>			
Respublika byudjeti	1728,7	154,8	17,5
Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi	-	-	-
Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	100,6	206,7	1,0
Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi	36,7	-	0,4
Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	841,3	215,3	8,5
<b><i>Markazlashmagan investitsiyalar:</i></b>	<b>8138,3</b>	<b>84,1</b>	<b>82,5</b>
Korxonalar mablag`i	1233,8	51,1	12,5
Aholi mablag`i	1268,0	93,6	12,9
To`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	4384,8	99,5	44,4
Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag`lari	1251,7	82,9	12,7

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, foizda



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, umumiy hajmdagi ulushi foizda

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi bo'yicha 5022,1 mlrd. so'm yoki 50,9 % qurilish-montaj ishlariga o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskunar va jihozlarni xarid qilishga 4206,7 mlrd. so'm yoki 42,6 % va boshqa xarajatlarga 638,2 mlrd. so'm yoki 6,5 % investitsiyalar o'zlashtirilgan.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan ulushi, foizda**

■ Tog-kon sanoati

■ Uy-joy qurilish

■ Tashish va saqlash

■ Suv ta'minoti

■ Ishlab chiqaradigan sanoat

■ Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish


■ Qishloq, urmon va baliq xo'jaligi

■ Qurilish

■ Ta'lim

■ Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlash

■ Boshqa faoliyat turlari




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1796,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 18,2 foizi o'zlashtirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari ishlab chiqaradigan sanoatiga 16,7%, uy-joyqurilishiga 12,3 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga 16,8%, qurilishga 5,9 %, tashish va saqlashga 6,1 %, ta'limga 3,3 %, suv ta'minotiga 5,0 %, ulgurji va chakana savdoga 2,8 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga 2,8%, boshqa faoliyat turlariga 10,1 % to'g'ri keladi.

Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshiririshi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.


### **Xorijiy investitsiya va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, foizda**



## Xorijiy investitsiya va kreditlar

2019 yil yanvar-dekabr oylarida 5226,1 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy xajmining 52,9% xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati 108,9% tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi 2363,0 mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 45,2 foizni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi 2863,1 mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 54,8 foizni tashkil qildi.

### Iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy hajmga nisbatan ulishi, foizda



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Suv ta'minoti
- Boshqa faoliyat turlari
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat


Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning asosiy hajmi tog‘-kon sanoatiga 1663,4 mlrd. so‘m, ishlab chiqarish sanoatiga 1099,9 mlrd. so‘m, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga 1029,6 mlrd. so‘m, suv ta‘minotiga 368,7 mlrd.so‘m, boshqa faoliyat turlariga 1064,5 mlrd. so‘m to‘g‘ri keladi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so'mda)

	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To`g`ridan- to`g`ri investitsi- yalar
		investitsiya	kredit	
<b>Jami viloyat</b>	<b>5226,1</b>	<b>2363,0</b>	<b>2863,1</b>	<b>2331,6</b>
Buxoro sh	1189,8	635,4	554,4	614,5
Kogon sh	126,1	126,1	-	126,1
Olot	889,0	648,3	240,7	648,3
Buxoro	264,0	247,5	16,5	247,5
Vobkent	153,8	5,0	148,8	5,0
G'ijduvon	112,3	33,8	78,5	32,1
Kogon	313,5	91,0	222,5	91,0
Qorako'l	120,4	99,9	20,5	99,9
Qorovulbozor	157,5	123,8	33,7	123,8
Peshku	299,3	151,6	147,7	151,6
Romitan	1246,8	48,6	1198,2	48,6
Jondor	190,1	49,5	140,6	49,5
Shofirkon	163,5	102,5	61,0	93,7



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Buxoro shahri eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu shaharda 2549,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati 134,2 foizni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Romitan tumani egalladi, o'zlashtirilgan investitsiyalar 1554,3 mlrd. so'm, o'sish sur'ati 97,7 foizni tashkil qildi. Olot tumani 1304,0 mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu tumanda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati 33,7 foizni tashkil qildi.

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga, tumanlar kesimida

	Aholi jon boshiga, ming so'mda	O'sish sur'ati, foizda
<b>Jami viloyat</b>	<b>5167,3</b>	<b>89,9</b>
Buxoro sh	9131,7	133,3
Kogon sh	4275,0	148,6
Olot	13278,9	33,1
Buxoro	3298,9	128,6
Vobkent	2255,4	157,5
G'ijduvon	2225,9	122,7
Kogon	7673,6	158,2
Qorako'l	2667,7	215,1
Qorovulbozor	14983,8	32,1
Peshku	4055,4	202,7
Romitan	11110,4	96,0
Jondor	3285,3	181,7
Shofirkon	1802,9	176,5

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori ko'rsatgichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga 14983,8 ming so'mga to'g'ri keldi, o'sish sur'ati 32,1 foizni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Olot tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga 13278,9 ming so'mga to'g'ri keldi, o'sish sur'ati 33,1 foizni tashkil qildi. Romitan tumani uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga 11110,4 ming so'mga to'g'ri keldi, o'sish sur'ati 96,0 foizni tashkil qildi.

## Ob'yektlarni ishga tushirish

	Turar-joylar		Shu jumladan: qishloq joylarida	
	Soni (birlikda)	Maydoni (ming kv.m.)	Soni (birlikda)	Maydoni (ming kv.m.)
<b>Jami viloyat</b>	<b>6061</b>	<b>1243,1</b>	<b>4234</b>	<b>807,9</b>
Buxoro sh	882	231,0		
Kogon sh	58	9,0		
Olot	483	113,9	402	75,8
Buxoro	521	110,7	474	103,1
Vobkent	357	72,3	276	58,0
G'ijduvon	1000	178,3	806	143,3
Kogon	442	99,7	442	99,7
Qorako'l	716	87,8	565	67,9
Qorovulbozor	55	10,0	33	6,4
Peshku	419	85,5	365	70,5
Romitan	534	114,0	396	82,7
Jondor	378	78,8	284	54,7
Shofirkon	216	52,1	191	45,8

2019 yilning yanvar-derabr oylarida ijtimoiy sohada jami umumiy maydoni 838,8 ming kv.m. bo'lgan 3562 ta turar-joy ob'yekti yangi qurilib ishga tushirildi, ulardan umumiy maydoni 581,7 ming kv.m. bo'lgan 2553 ta turar joylar qishloq joylarida joylashgan.

**Buxoro viloyat statistika boshqarmasi**

	<b>Suv tarmoqlari</b> (km.)		<b>Gaz tarmoqlari</b> (km.)	
	<b>Uzunligi</b>	<b>Shu jumladan: qishloq joylarida</b>	<b>Uzunligi</b>	<b>Shu jumladan: qishloq joylarida</b>
<b>Jami viloyat</b>	<b>242,7</b>	<b>170,2</b>	<b>6,4</b>	<b>3,3</b>
Buxoro sh	8,1			
Kogon sh	1,9			
Olot	46,6	39,1	5,2	2,1
Buxoro	21,4	8,3	1,2	1,2
Vobkent	6,8	4,2		
G'ijduvon	12,1	12,1		
Kogon	4,5	4,5		
Qorako'l	12,9	8,4		
Qorovulbozor	19,8	19,8		
Peshku	34,2	34,2		
Romitan	29,7	18,5		
Jondor	22,3	14,3		
Shofirkon	22,4	6,8		

Kommunal xo'jaligi sohasida 125,4 km. suv tarmoqlari (hammasi qishloq joylarida) hamda 3,3 km. bo'lgan gaz tarmoqlari (hammasi qishloq joylarida) ishga tushirildi.

Shuningdek, viloyatida 9212 o'quv o'rinli umumta'lim maktablari, shundan qishloq joylarida 6620 o'quv o'rni, 306 o'rinli shifoxonalar, shu jumladan qishloq joylarida 55 o'rinli, 1315 smenaga qatnovli ambulatoriya-poliklinika muassasalaru, shundan qishloq joylarida 1115 smenada qatnovli va 5530 o'rinli maktabgacha ta'lim muassaslari, shundan qishloq joylarida 4030 o'rin foydalanishga topshirildi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

*Nashr uchun mas'ul:*

*Aloqa telefoni:*

**O.Jabborov**

**Tel: (65) 223-81-99,**

**Tel: (71) 230-83-10**